



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2025- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 26 961 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 23 194 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 41 722 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1- mart holatiga)

Ro'yxatdan o'tgan (birlikda)

41 722

2025

39 638

2024

36 692

2023

33 727

2022

30 694

2021

Faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)

2025

26 961

2024

30 465

2023

31 660

2022

31 354

2021

28 935

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil yanvar-fevral oylarida)**


2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 909 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmogda. Jumladan: Romitan (71 taga), Qorako'l (30 taga) va Buxoro shahrida (26 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 153 taga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 87 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- mart holatiga 26 961 tani tashkil etdi, ulardan 23 367 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,9 foiz, sanoat – 11,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,7 foiz, qurilish – 7,6 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Buxoro shahrida – 27,0 foiz, tumanlardan G'ijduvon – 10,4 foiz, Romitan – 8,9 foiz, Jondor – 8,0 foiz va Buxoroda – 7,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	7 268
2 796	G'ijduvon t.
Romitan t.	2 402
2 175	Jondor t.
Buxoro t.	2 021
1 675	Vobkent t.
Shofirkon t.	1 626
1 477	Kogon t.
Peshku t.	1 465
1 377	Qorako'l t.
Olot t.	1 130
965	Kogon sh.
Qorovulbozor t.	584

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025- yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 729 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 726 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)

729 → 2025

2024 ← 663

926 → 2023

2022 ← 815

1 202 → 2021

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh. 179

Romitan t. 120

G‘ijduvon t. 60

Buxoro t. 55

Qorako‘l t. 44

Kogon t. 43

Jondor t. 42

Shofirkon t. 37

Olot t. 36


Peshku t. 36

Vobkent t. 34

Kogon sh. 25

Qorovulbozor t. 18

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- mart holatiga 23 367 tani tashkil etdi, ulardan 23 194 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,3 foiz, sanoat – 13,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,2 foiz, qurilish – 8,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,3 foiz, tashish va saqlash – 9,8 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,0 foiz, boshqa turlari – 10,1 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar-fevral oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 204 tadan 225 taga (o‘sish 21 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik – 70 tadan 157 taga (o‘sish 87 taga) ko‘paydi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Buxoro sh.	176
Romitan t.	120
G‘ijduvon t.	60
Buxoro t.	55
Qorako‘l t.	44
Kogon t.	43
Jondor t.	42
Shofirkon t.	37
Olot t.	36
Peshku t.	36
Vobkent t.	34
Kogon sh.	25
Qorovulbozor t.	18

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni


(birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (26,9 foiz), G'ijduvon (10,4 foiz), Romitan (9,3 foiz) va Jondor (8,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025- yil 1- mart holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Romitan (17,5 foiz), Jondor (11,4 foiz) va Kogon (9,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Romitan t.	505
Jondor t.	329
Kogon t .	259
Buxoro t.	249
Shofirkon t.	235
G'ijduvon t.	226
Olot t.	214
Vobkent t.	205
Peshku t.	194
Qorovulbozor t.	163
Qorako'l t.	139
Buxoro sh.	134
Kogon sh.	31

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025-yil 1-mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 11,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 3,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Buxoro sh.	686
G'ijduvon t..	380
Kogon t.	297
Jondor t.	254
Romitan t.	254
Buxoro t.	242
Vobkent t.	219
Shofirkon t.	172
Peshku t.	151
Olot t.	144
Qorako'l t.	137
Kogon sh.	127
Qorovulbozor t.	55

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 26,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 24,9 foiz ulushni tashkil etdi;


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Buxoro sh.	681
Romitan t.	184
Shofirkon t.	168
Buxoro t.	155
Jondor t.	147
Peshku t.	122
G'ijduvon t.	119
Kogon t.	101
Kogon sh.	89
Vobkent t.	85
Qorako'l t.	81
Olot t.	67
Qorovulbozor t.	41

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Bino va
inshootlar qurish

994



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

539



Fuqarolik
obyektlarini qurish

507



(2025- yil 1- mart holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 7 766 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 60,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 11,0 foiz ulushni tashkil etdi

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Buxoro sh.	2 059
G'ijduvon t..	963
Buxoro t.	639
Romitan t.	635
Jondor t.	569
Qorako'l t.	487
Vobkent t.	442
Shofirkon t.	413
Peshku t.	406
Kogon t.	388
Olot t.	336
Kogon sh.	315
Qorovulbozor t.	138

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



4 724

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2 214

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

852

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga 1 944 taga yetib, ularning 1 938 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 18,7 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 81,3 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



1 580 Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

364

(2025- yil 1- mart holatiga)

2025-yil 1-mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 65,7 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 31,2 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,1 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Buxoro sh.	152
Shofirkon t.	21
Buxoro t.	19
Kogon sh.	18
Romitan t.	18
G'ijduvon t.	17
Jondor t.	16
Peshku t.	16
Vobkent t.	15
Olot t.	13
Qorako'l t.	8
Qorovulbozor t.	8
Kogon t.	6

Yillar kesimida soni

(birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

124

91

Aloqa



Noshirlik faoliyati

56

46

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



 Kino-videofilmlar, televizion
dasturlari, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

8

2

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2025- yil 1- mart holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 707 ta yoki 77,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

Ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,5 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,8 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Buxoro sh.	350
G'ijduvon t.	93
Buxoro t.	74
Jondor t.	65
Shofirkon t.	64
Vobkent t.	52
Romitan t.	51
Peshku t.	41
Qorako'l t.	40
Kogon sh.	38
Kogon t.	28
Olot t.	24
Qorovulbozor t.	13

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash



(2025-yil 1-mart holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Buxoro sh.	493
Jondor t.	358
Romitan t.	293
G'ijduvon t.	289
Vobkent t.	237
Buxoro t.	149
Shofirkon t.	135
Kogon t.	104
Peshku t.	92
Kogon sh.	59
Qorako'l t.	33
Olot t.	27
Qorovulbozor t.	22

2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 8,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 86,3 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 12,7 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 0,9 foizni;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2025- yil 1- mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

18 605

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

79,6

2 204

Xususiy korxonalar

9,4

2 372

Oilaviy korxonalar

10,2

34

Aksiyadorlik jamiyat

0,1

152

Boshqalar

0,7

(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	170
Romitan t.	117
G'ijduvon t.	53
Buxoro t.	47
Kogon t.	41
Jondor t.	36
Shofirkon t.	31

Vobkent t.	31
Peshku t.	31
Olot t.	30
Kogon sh.	20
Qorako'l t.	18
Qorovulbozor t.	17

(2025- yil yanvar holatiga)

Amaldagi 23 367 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- mart holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 18 605 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,4 foiz, sanoat – 12,3 foiz, qurilish – 10,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,5 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	5 100
Romitan t.	1 974
G'ijduvon t.	1 875
Jondor t.	1 740
Buxoro t.	1 373
Vobkent t.	1 112
Shofirkon t.	1 099


Peshku t.	1 085
Kogon t.	1 077
Qorako'l t.	637
Kogon sh.	540
Olot t.	532
Qorovulbozor t.	461

(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Qorako‘l t.	22
Jondor t.	3
Buxoro sh.	2
Kogon sh.	1

Kogon t.	1
G‘ijduvon t.	1
Peshku t.	1
Buxoro t.	1


(2025- yil 1- mart holatiga)

2025- yil 1- mart holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Buxoro shahrida – 600 ta, Qorako'l – 294 ta va Olotda – 245 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 989 ta, sanoat – 268 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 225 ta va qurilish sohasida – 139 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	600
Qorako'l t.	294
Olot t.	245
Buxoro t.	220
G'ijduvon t.	194
Kogon t.	144
Kogon sh.	126


Vobkent t.	91
Jondor t.	90
Shofirkon t.	73
Romitan t.	67
Peshku t.	50
Qorovulbozor t.	10

(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	7
Buxoro t.	6
Olot t.	5
G’ijduvon t.	5
Kogon sh.	4
Shofirkon t.	4


Qorako’l t.	3
Romitan t.	2
Vobkent t.	2
Jondor t.	2
Qorovulbozor t.	1
Peshku t.	1

(2025- yil 1- mart holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra 2 372 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,5 foiz, sanoat – 21,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 27,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Buxoro shahar – 22,1 foiz, G'ijduvon – 15,4 foiz va Vobkent tumanlarida – 10,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	525
G'ijduvon t.	365
Vobkent t.	242
Shofirkon t.	176
Buxoro t.	169
Olot t.	167
Qorako'l t.	165

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Fermer xo'jaligi – ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektiidir. Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiylar sonining 100,0 foizini tashkil etadi.



Yillar kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jondor t.	5
Peshku t.	5
Qorovulbozor t.	1
Olot t.	1
Buxoro t.	1
Kogon t.	1
Romitan t.	1
Buxoro sh.	1

(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Jondor (14,2 foiz), Buxoro (14,2 foiz) va Romitan (11,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

(2025- yil yanvar-fevral oylarida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'limalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2025- yil yanvar-fevral oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 109,0 foizni tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	6
Olot t.	2
Kogon t.	1


Qorako'l t.	1
Peshku t.	1
Kogon sh.	1

(2025- yil 1- mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 322 ta korxonalardan 119 tasi qo'shma korxonalar va 203 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	162
Buxoro t.	28
Kogon t.	26
Olot t.	17
Kogon sh.	16
Romitan t.	14
Qorako'l t.	12



Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 barobarga oshdi.


Yetakchi o'rinni 65 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkmaniston egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 16,5 foiz), Turkiya (ulushi 13,4 foiz), Rossiya (ulushi 12,4 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 2,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- mart holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Buxoro shahri – 54,2 foiz, Kogon shaharga – 3,9 foizga, tumanlar orasida esa Buxoro – 6,4 foiz va Kogon – 7,4 foizqa to‘q’ri keladi.



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- mart holatiga, birlikda)

qo'shma korxonalar

- 1 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- 4 Axborot va aloqa
- 2 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- 9 Tashish va saqlash
- 8



xorijiy korxonalar

- 10 Qishloq, o'mron va baliqchilik xo'jaligi
- 8 Sanoat
- 53 Qurilish
- 45 Savdo
- 6
- 17
- 32
- 87

Boshqa turlar
23



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo’lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- mart** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

